




# FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



**FARG'ONA VILOYATINING  
SANOAT ISHLAB CHIQARISHI  
2023-YIL YANVAR-APREL  
(DASTLABKI MA'LUMOT)**



**Tel.: 73-241-96-28  
[www.farstat.uz](http://www.farstat.uz)**



## Farg‘ona viloyati sanoatining asosiy ko‘rsatkichlari

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2023-yilning yanvar-aprel oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 9 088,9 mlrd.so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 103,5 % ni tashkil etdi.



## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida


Farg‘ona viloyatida 2023-yil yanvar-aprel oylariga aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi 2280,5 ming so‘mni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich aholi ehtiyojlari ishlab chiqarish mahsulotlariga nisbatan o‘sib borayotganini ko‘rsatadi.



\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

## Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, **8 580,9** mlrd.so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi **94,4 %** ni, tashkil etdi.



Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **19,1** mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **0,2 %**ini tashkil etdi.



yanvar-aprel

**2022-y.** 20,3 mlrd. so‘m

**2023-y.** 19,1 mlrd. so‘m

FHI, %da

**2022-y.** 74,4%

**2023-y.** 95,2%

## C seksiya

### Ishlab chiqaradigan sanoat

2023-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **8 580,9** mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining **94,4 %**ini tashkil etdi.

**2022-y.** yanvar-aprel


7 778,9 mlrd. so‘m

**2023-y.** 8 580,9 mlrd. so‘m

FHI, %da

**2022-y.** 105,8%

**2023-y.** 106,6%



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab  
chiqarilgan ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati  
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

	Dizel yoqilg'isi	Avtomobil benzini	Klinker sement
2023	152,4	2023	34,7
2022	86,3	2022	46,3
2021	89,5	2021	131,4
	O'simlik yog'i (tozalangan)	Portlandsement	Yumshoq bug'doy va spelta uni
2023	87,6	2023	71,7
2022	45,0	2022	88,7
2021	87,2	2021	86,0
	Neft bitumi	Aroq ming litr (100% spirit)	Uzum vinosi
2023	5,8 r	2023	138,4
2022	20,7	2022	49,8
2021	3,8 r	2021	104,4
	Karbamid	Paxta chigit	Paxta linti
2023	114,7	2023	111,6
2022	66,3	2022	155,9
2021	52,8	2021	68,2

2023-yilning yanvar-aprel oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 116,6 ming tonna avtomobil benzini (2022-yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan 70,5% ga ko'paygan), 146,3 ming tonna dizel yoqilg'isi (52,4 % ko'paygan), 42,8 ming tonna kalava ip mahsulotlari (0,4%ga kamaygan) hamda 18019,1 ming kv metr paxtadan tayyorlangan matolar (16,2%ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.





**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-aprel	2023-yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Avtomobil benzini, ming t	29,3	116,6	87,3
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	75,7	54,2	-21,5
Paxta chigit, ming t.	39,3	46,4	7,1
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	4,8	4,2	-0,6

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 7,0 % (2022-yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 153,1%), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari ishlab chiqarishining ulushi – 41,9% (2022-yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 96,8 %), oziq-ovqat, ichimlik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 17,4% (2022-yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 124,5%), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 12,5 % (2022-yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 118,6 %)ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 %ni (2022-yilning yanvar-aprel oylarida – 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 13,4 % (11,8 %), o'rta-quyi texnologiyali – 20,6% (21,0%) va quyi texnologiyalisi – 60,2% (60,2%)ni tashkil etdi.






## Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-aprel oylarida metallurgiya sanoati 47,0 mld. so‘mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,5%ni tashkil etib, fizik hajm indeksi esa 186,6 % ni tashkil etgan.


2022-yilning yanvar-aprel oylarida metallurgiya sanoati 33,3 mld. so‘mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,4%ni etdi o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 115,0 % ga kamaydi.



## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 11,1 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 1,7 % ga o‘sgan va ishlab chiqarish hajmi 956,4 mld. so‘mni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 10,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 107,2 % ni tashkil etgan.



## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 17,4 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 28,1 % ga o‘sdi va ishlab chiqarish hajmi 1490,8 mld. so‘mni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 96,4 % ni tashkil etgan.

## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2023-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi 1,7 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 86,7 % ga o‘sdi va ishlab chiqarish hajmi 25,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.


2022-yilning yanvar-aprel oylarida ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi 1,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 96,4 % ni tashkil etgan.



## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2023-yilning yanvar-aprel oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 35,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 26,5 % ga kamaygan bo‘lsa, ishlab chiqarish hajmi 3 031,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 41,6 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 117,4 % ni tashkil etgan.




## Kiyim ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,0 %, fizik hajm indeksi 128,4 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 432,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,8 % ni, fizik hajm indeksi esa 134,4 % ni tashkil etgan.



## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish



2023-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 10,0 % ni, fizik hajm indeksi 112,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 856,0 mlrd.so‘mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2022-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 9,1 % ni fizik hajm indeksi esa 123,2 % ni tashkil etgan.

## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish



2023-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarining ishlab chiqarish sanoatidagi ulushi 5,0 % ni, fizik hajm indeksi 69,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 426,9 mlrd.so‘mni tashkil etdi. Shuningdek, 2022-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 7,9 % ni fizik hajm indeksi esa 67,6 % ni tashkil etgan.

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish




2023-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,5 % ni, fizik hajm indeksi 155,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 214,0 mlrd.so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,6 % ni fizik hajm indeksi esa 92,5 % ni tashkil etgan.

## **Elektr uskunalari ishlab chiqarish**

2023-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, ishlab chiqaradigan sanoatda elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 0,8 % ni, fizik hajm indeksi 178,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 68,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2022-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni fizik hajm indeksi esa 75,9 % ni tashkil etgan.



## **Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish**

2023-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,6 % ni, fizik hajm indeksi 136,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 221,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2022-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,9 % ni fizik hajm indeksi esa 110,2 % ni tashkil etgan.



## **Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish**


2023-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,5 %, fizik hajm indeksi 34,5 % ga kamaydi hamda ishlab chiqarish hajmi 216,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,1 % ni fizik hajm indeksi esa 154,5 % ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan 2023-yil yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 428,2 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,7% ini) tashkil etadi.


2023-yilning yanvar-aprel oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 51,3 mlrd. so‘mga kamayganligi kuzatildi.



### **Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-aprel	2023- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
<b>Elektroenergiya, mln.kVt.s</b>	<b>144,3</b>	<b>106,0</b>	<b>-38,3</b>
<b>Issiqlik energiyasi, ming gkal</b>	<b>453,8</b>	<b>696,7</b>	<b>242,9</b>

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 60,7 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 %ini) tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-aprel	2023- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	6,7	5,4	-1,3
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	10,5	6,5	-4,0


O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 1,3 mlrd. so'm yoki 19,1 %ga kamayganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o'ralarini tindirgichlarini va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 4,0 mlrd. so'm va 38,2 %ga kamaygan.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish


Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2 239,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022-yilning mos davriga nisbatan 106,1%ni, uning jami sanoatdagi ulushi 24,6%ni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari


2022-yil  
yanvar-aprel



### Nooziq-ovqat mahsulotlari



2023-yil  
yanvar-aprel



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari 22,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2022-yil

101,5%

2023-yil

132,3%



## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Farg‘ona viloyati bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 562,0 ming.so‘m bo‘lgani holda 2022-yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 104,0 %ni tashkil etdi.

### Farg‘ona viloyati

2022-yil	98,1%	553,5	ming so‘m
----------	-------	-------	-----------

*2022-yil yanvar-aprel*

2023-yil	104,0%	562,0	ming so‘m
----------	--------	-------	-----------

*2023-yil yanvar-aprel*



## Hududlar bo'yicha oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining Farg'onaviyoti jami oziq-ovqat mahsulotlari 1109,4 mlrd.so'mni tashkil etgan bo'lsa, jami nooziq-ovqat mahsulotlari hajmi esa 1130,3 mlrd.so'mni tashkil etdi.

*Oziq-ovqat mahsulotlari  
Yanvar-aprel*

*Hajmi, mlrd.so'm*

**924,2** 2022-yil

**1109,4** 2023-vil

*O'sish sur'ati %da*

**98,4%** 2022-yil

**107,5%** 2023-vil

*Nooziq-ovqat mahsulotlari  
Yanvar-aprel*

*Hajmi, mlrd.so'm*

**1223,7** 2022-yil

**1130,3** 2023-vil

*O'sish sur'ati %da*

**102,2%** 2022-yil

**104,4%** 2023-vil



## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishida kichik biznesning ulushi 2023-yilning yanvar-aprel oylarida *jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi (foiz)da*


Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 4 103,4 mlrd.so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 45,1 %ni tashkil etdi.

*2023-yil 1-may holatiga*

### Farg‘ona viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda Farg‘ona viloyatida 12327 ta sanoat korxonalari ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib ularidan 8475 tasi faoliyat ko‘rsatmoqda.

#### Yangi tashkil etilgan korxonalar



#### Jami faoliyat yuritayotgan korxonalar

